



ESKI SHAHAR MAHALLALARINI URBANISTIK RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY STRATEGIYALAR VA ULARNING QO'LLANILISHI

Karimova Go'zal Ibrohimjon qizi

Samarqand davlat arxitektura va qurilish universiteti doktoranti

Annotatsiya. *Urbanizatsiya jarayonining jadallashuvi shahar hududlarining yangilanishi va qayta tashkil etilishini zaruratga aylantirmoqda. Xususan, tarixiy jihatdan shakllangan eski shahar mahallalari bugungi kun talablariga javob beruvchi zamonaviy infratuzilma, yashash sifati va barqaror rivojlanish mezonlariga mos holda yangilanmoqda. Ushbu tadqiqotda eski mahallalarni urbanistik rivojlantirishda qo'llanilayotgan zamonaviy strategiyalar — konservatsiya, rehabilitatsiya, integratsiyalashgan qayta rejalashtirish va inklyuziv jamoatchilik ishtiroki modellarining nazariy asoslari va amaliy qo'llanilishi o'rganiladi.*

Tadqiqot doirasida O'zbekiston shaharlari, xususan Toshkent, Buxoro va Xiva kabi tarixiy shaharlarning mahalla tuzilmalari misolida eski tuzilmalarning transformatsiya jarayonlari tahlil qilinadi. Yevropa va Osiyo davlatlarining ilg'or urbanistik yondashuvlari bilan qiyosiy taqqoslash asosida an'anaviy me'moriy merosni asrab qolgan holda zamonaviy shahar ehtiyojlariga mos keluvchi rejalashtirish yechimlari ishlab chiqiladi.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, muvaffaqiyatli strategiya tarixiy tuzilmani saqlab qolgan holda, funksional va ekologik jihatdan boyitilgan, ijtimoiy integratsiyalashgan urbanistik modelni yaratishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *eski shahar mahallalari, urbanistik rivojlanish, qayta rejalashtirish, konservatsiya, me'moriy meros, rehabilitatsiya, ijtimoiy integratsiya, barqaror shaharsozlik, tarixiy shahar muhiti, zamonaviy infratuzilma, transformatsiya strategiyalari, mahalla modeli*

Abstract. *The acceleration of the urbanization process is making the renewal and reorganization of urban areas a necessity. In particular, the historically formed Old City mahallas are being renovated to meet the requirements of today's modern infrastructure, quality of living and sustainable development criteria. This study explores the theoretical underpinnings and practical applications of modern strategies used in urban development of old mahallas — conservation, rehabilitation, integrated rescheduling, and inclusive community participation models.*

Within the framework of the study, transformation processes of old structures are analysed using the example of mahalla structures of cities of Uzbekistan, in particular historical cities such as Tashkent, Bukhara and Khiva. Based on a comparative comparison with the advanced urbanistic approaches of the European and Asian states, planning solutions are developed that are suitable for the needs of a modern city, adopting a traditional architectural heritage.





The results show that a successful strategy serves to create a functionally and ecologically enriched, socially integrated urbanistic model while maintaining a historical structure.

Keywords: *Old City mahallas, urbanistic development, rescheduling, conservation, architectural heritage, rehabilitation, social integration, sustainable urban planning, historic urban environment, modern infrastructure, transformation strategies, mahalla's model*

Аннотация. *Ускорение процесса урбанизации делает необходимым обновление и реорганизацию городских территорий. В частности, исторически сложившиеся кварталы Старого города обновляются в соответствии с современными критериями инфраструктуры, качества жизни и устойчивого развития, отвечающими современным требованиям. В настоящем исследовании исследуются теоретические основы и практическое применение современных стратегий, используемых в урбанистическом развитии старых кварталов — моделей сохранения, реабилитации, комплексной перепланировки и инклюзивного участия сообщества.*

В рамках исследования будут проанализированы процессы трансформации старых структур на примере махаллей исторических городов Узбекистана, в частности Ташкента, Бухары и Хивы. На основе сравнительного сопоставления с прогрессивными урбанистическими подходами европейских и азиатских государств разрабатываются планировочные решения, соответствующие потребностям современного города с сохранением традиционного архитектурного наследия.

Результаты показывают, что успешная стратегия служит для создания функционально и экологически обогащенной социально интегрированной урбанистической модели с сохранением исторической структуры.

Ключевые слова: *махалля старого города, урбанистическое развитие, перепланировка, сохранение, архитектурное наследие, реабилитация, социальная интеграция, устойчивое городское планирование, историческая городская среда, современная инфраструктура, стратегии трансформации, модель махалля*

Eski shahar mahallalari – bu uzoq tarixiy davrlar davomida shakllangan, o'ziga xos me'moriy meros, ijtimoiy tizim va fazoviy tashkil etish xususiyatlariga ega hududlardir. Bu hududlar O'zbekiston shaharlarining (masalan, Buxoro, Xiva, Toshkent, Shahrisabz) tarixiy yadrosini tashkil etadi. Mahalla modeli qadimiy jamoaviy hayot shaklining fazoviy ifodasidir va u ijtimoiy birdamlik, madaniy xotira, hamkorlik madaniyatini o'zida mujassam etadi.

Zamonaviy urbanizatsiya va aholining keskin o'sishi bilan birga, bu tarixiy hududlar ko'plab muammolarga duch kelmoqda: moddiy eskirish, infratuzilmaning quyi darajasi, ekologik muvozanatning buzilishi, transport muammolari va aholining migratsiyasi. Ko'plab hollarda, tarixiy mahallalar zamonaviy shaharlardan izolyatsiyalangan, iqtisodiy jihatdan sust, investitsiyalarni jalb eta olmaydigan zonalarga aylanmoqda. Bu holat urbanistik rivojlanishda ularga nisbatan yangicha yondashuvlar zarurligini taqozo etadi.





Zamonaviy urbanistik yondashuvlar eski shahar mahallalarini transformatsiya qilishda faqatgina rekonstruksiya emas, balki kompleks yondashuvlarni – konservatsiya, rehabilitatsiya, qayta rejalashtirish, ekologik uyg'unlashtirish, hamda ijtimoiy inklyuzivlikni o'z ichiga oladi.

Konservatsiya – bu tarixiy me'moriy obidalarni, mahalliy rejalashtirish tizimini va muhit xususiyatlarini saqlab qolish orqali ularni yangi funksiyalar bilan boyitish strategiyasidir. Bunda tarixiy uylar, masjidlar, hammomlar, choyxonalar kabi obyektlar restavratsiya qilinadi va ularning autentik ko'rinishi tiklanadi. Shu bilan birga, bu hududlarga turizm, madaniyat va hunarmandchilik asosida yangi iqtisodiy hayot bag'ishlanadi.

Konservatsiya shaharni tanib bo'ladigan qiyofasini saqlash, shahar xotirasini tiklash va shahar identitetini mustahkamlashda muhim vositadir. Tarixiy shahar muhiti — bu faqat me'moriy obida emas, balki madaniy qatlamlar yig'indisidir, uni to'laqonli anglamasdan barqaror rivojlanishni ta'minlab bo'lmaydi.

Reabilitatsiya — bu eski hududlardagi mavjud ijtimoiy va moddiy holatni saqlagan holda ularni zamonaviy hayot talablariga moslashtirish strategiyasidir. Bunda zamonaviy infratuzilma: suv ta'minoti, kanalizatsiya, energiya tizimi, internet, ekologik yechimlar (yomg'ir suvlari tizimi, yashil maydonlar) bosqichma-bosqich joriy qilinadi. Eski mahallalarning transport tizimi ko'pincha tor ko'chalarga, piyodalar harakatiga asoslangani uchun u yerda zamonaviy avtomobil harakatiga qaratilgan yangilanishlar emas, balki “yumshoq mobilitet” — piyodalar, velosiped, jamoat transporti integratsiyasiga asoslangan rejalashtirish zarur bo'ladi. Reabilitatsiya shuningdek, uy-joy fondining sekin, lekin barqaror yangilanishini ham nazarda tutadi.

Qayta rejalashtirish — bu hudud tuzilmasining, ya'ni ko'cha tarmog'i, binolar zonalashuvi, umumiy fazoviy sxemasining qayta ko'rib chiqilishidir. Lekin eski mahallalarda bu jarayon ehtiyotkorlik bilan olib borilishi kerak, chunki keskin rejalashtirish tarixiy qatlamlarni yo'q qilishi mumkin.

Zamonaviy urbanistik yondashuvlar bu yerda “ekologik qayta rejalashtirish” tushunchasini ilgari surmoqda: bu yashil maydonlar, ochiq jamoat joylari, ekologik infratuzilmani (masalan, quyosh panellari, yog'ingarchilik suvlarini yig'ish tizimi) integratsiya qilishni bildiradi. Eski shahar mahallalarida yashil infratuzilma faqatgina ekologik emas, balki ijtimoiy barqarorlikni ham ta'minlaydi: masalan, ayvonlar oldidagi daraxtli maydonlar, bog'chalar, yashil choyxona hududlari fuqarolar uchun nafaqat dam olish joyi, balki jamoaviy muloqot fazosidir.

Urbanistik yangilanish jarayonida faqat moddiy muhit emas, balki ijtimoiy tarkib ham o'zgaradi. Eski mahallalarda yashovchi aholining qismi ko'pincha ijtimoiy jihatdan zaif qatlamlardan iborat bo'lib, ularni yangilash jarayonida joyidan siqib chiqarish xavfi mavjud. Shu sababli zamonaviy yondashuvlar mahalla modelining transformatsiyasini jamiyatning o'zini inklyuziv tarzda qayta shakllantirishga yo'naltiradi.

Bu jarayonda aholi ishtiroki, ya'ni “participator” yondashuv (fuqarolarni rejalashtirish va qaror qabul qilishga jalb qilish) muhim o'rin tutadi. Mahalla faollari, mahalliy me'morlar,





yoshlardan iborat guruhlar mahallaning qanday yangilanishi kerakligi haqida to'g'ridan-to'g'ri fikr bildirishi urbanistik qarorlarning uzoq muddatli barqarorligini ta'minlaydi.

Dunyo tajribasida bir nechta ilg'or shaharlar eski hududlarni urbanistik yangilashda muvaffaqiyatli modelni ishlab chiqdi. Misol uchun:

-Barselona (Ispaniya): tarixiy "El Raval" tumani reabilitatsiya qilinib, u yerda ochiq jamoat joylari, madaniy markazlar va ijtimoiy turar-joylar muvozanatli integratsiya qilindi.

-Istanbul (Turkiya): Sulaymoniya va Fatih hududlarida konservatsiya asosida tarixiy me'moriy qatlamlar saqlab qolinganda turizm va ijtimoiy xizmatlar rivojlantirildi.

-Xiva va Buxoro (O'zbekiston): so'nggi yillarda madaniy merosni saqlagan holda rekreatsion va sayyohlik infratuzilmasi qamrab olingan, ammo ijtimoiy integratsiya va yashash muhitining barqarorligi masalasida hali muammolar mavjud.

Bu tajribalar shuni ko'rsatadiki, eski shahar mahallalarini yangilashda barqaror yondashuvlar faqatgina fizik transformatsiya bilan cheklanmasligi, balki ekologik, madaniy va ijtimoiy jihatlarining muvozanatiga asoslanishi lozim.

Eski shahar mahallalari urbanistik rivojlanishda beqiyos resursdir: ular tarixiy qatlamlar, me'moriy meros, ijtimoiy tuzilma va madaniy identitetni mujassamlashtiradi. Zamonaviy infratuzilmani bu hududlarga integratsiyalash ekologik barqarorlikni oshiradi, yashash sifati va jamoaviy hayotni yaxshilaydi. Qayta rejalashtirishda ekologik yechimlar, yashil maydonlar, jamoat joylari va inklyuziv dizayn yondashuvlari qo'llanishi lozim. Har qanday transformatsiya islohoti mahalliy aholi ishtirokida, madaniy merosni asrash va ijtimoiy adolat tamoyili asosida olib borilishi kerak.

Eski mahallalar Markaziy Osiyoda, ayniqsa O'zbekiston shaharlarida, an'anaviy sharqona urbanistik model asosida shakllangan. Mahalla chegaralari ko'pincha ijtimoiy aloqalarga asoslangan bo'lib, u rasmiy hujjatlar emas, balki jamoa xotirasi bilan belgilanadi. Asosiy fazoviy elementlari quyidagilardir:

- tor, egri ko'chalar (xususiy hayotni himoya qiladi);
- ichki hovlilar (mikroiqlimni tartibga soladi);
- masjid, choyxona, hammom (jamoat hayotining markazi);
- ko'kalamzor maydonlar, tutzorlar (ekologik va ijtimoiy fazo).

Bu tuzilma ekologik jihatdan barqaror bo'lib, iqlimga moslashgan va ijtimoiy integratsiyani kuchaytiruvchi muhit yaratgan.

Eski shahar hududlari ko'pincha past zichlikdagi, ekologik jihatdan nozik muhitlar bo'lib, ularni quyidagicha ekologik jihatdan transformatsiya qilish mumkin:

- mikroko'chalar bo'ylab ko'chat ekish (soya va iqlim barqarorligi uchun);
- ochiq yashil jamoat joylarini tiklash (masalan, tarixiy choyxona atrofi);
- tabiiy ventilyatsiya va yoritish dizaynini tiklash;
- yomg'ir suvi yig'ish tizimlari va yashil tomilar joriy etish;
- yer osti inshootlarining ekologik monitoringi (eski kanalizatsiya, drenaj tizimi).

Bu chora-tadbirlar ekologik infratuzilmani tarixiy muhitga singdirish imkonini beradi.





Zamonaviy urbanistika jamoaning ishtirokiga asoslangan yondashuvni zarur deb biladi. Bu:

- participator dizayn (fuqarolar ishtirokida makon loyihalash);
- arorlar qabul qilishda mahalla faollarini jalb etish;
- madaniy merosga egalik hissini shakllantirish orqali o'z hududiga mas'uliyatni oshiradi.

Bunday yondashuv shaharni davlat emas, fuqarolar bilan birga boshqarish imkonini yaratadi. Eski hududlarni rivojlantirishda quyidagi hujjatlarga tayaniladi:

—UNESCO World Heritage Urban Guidelines – tarixiy shaharlarni saqlash bo'yicha xalqaro mezonlar;

—UN-Habitat's Urban Regeneration Toolkit – global reabilitatsiya strategiyalari;

—O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-iyundagi PQ-302-son qarori – tarixiy shaharlardagi me'moriy merosni saqlash va rivojlantirish to'g'risida.

Bu hujjatlar asosida urbanistik yondashuvlar ilmiy va huquqiy asosda yo'lga qo'yiladi.

Har bir eski mahalla uchun alohida strategik reja ishlab chiqilishi lozim. Tarixiy identitetni tiklash + ekologik transformatsiya – asosiy printsipl bo'lishi zarur. Mahalla doirasida yashil va jamoat fazolarining foizi oshirilishi kerak. Turar joy va iqtisodiy hayot muvozanatini saqlovchi inklyuziv yondashuv qo'llanishi zarur. Fuqarolik ishtiroki asosida ochiq rejalashtirish amaliyotga joriy etilishi kerak. Urbanistik rivojlanish jarayonida eski shahar mahallalari o'zining madaniy, me'moriy va ijtimoiy merosi bilan muhim resurs sifatida qaralishi zarur. Ular shahar tarixiy qatlamining tirik ifodasi bo'lib, zamonaviy hayot talablari bilan uyg'unlashtirilgan holda qayta rivojlantirilishi kerak. O'zbekiston shaharlarida, xususan Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Toshkentning eski mahallalari misolida olib borilgan tahlillar bir qancha nazariy xulosalarni asoslaydi. Birinchidan, eski mahallalar barqaror rivojlanishning asosiy elementlaridan biridir. Ular faqat tarixiy xotira emas, balki ijtimoiy barqarorlik, ekologik uyg'unlik va jamoaviy hayotni saqlash vositasi sifatida ham muhimdir. Ikkinchidan, zamonaviy urbanistik strategiyalar konservatsiya, reabilitatsiya, qayta rejalashtirish va inklyuziv transformatsiyani uyg'unlashtirgan holda qo'llanilishi lozim. Har bir mahallaning individual holati, madaniy qatlami va ijtimoiy tuzilmasi inobatga olinishi zarur. Uchinchidan, ijtimoiy integratsiya va fuqarolik ishtiroki asosidagi yondashuvlar uzoq muddatli samaradorlikni ta'minlaydi. Mahalla aholisining bevosita ishtiroki ularni joyidan siqib chiqarilish xavfini kamaytiradi va mahalliy identitetni mustahkamlaydi. To'rtinchidan, yashil jamoat joylari, ekologik infratuzilma va tarixiy obidalarining uyg'un dizayni orqali eski hududlarda ekologik va estetik uyg'unlikni ta'minlash mumkin. Bu esa ekologik barqarorlikka ham xizmat qiladi. Beshinchidan xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, eski mahallalarni yangilashda keskin rekonstruksiya emas, balki bosqichma-bosqich, ehtiyotkor, madaniy qatlamlarni saqlovchi yondashuvlar afzalroqdir.





Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gehl, J. (2011). Cities for people. Island Press.
2. Whyte, W. H. (1980). The social life of small urban spaces. Project for Public Spaces.
3. UN-Habitat. (2020). World cities report 2020: The value of sustainable urbanization. United Nations Human Settlements Programme. <https://unhabitat.org>
4. Moreno, C., Allam, Z., Chabaud, D., Gall, C., & Pratlong, F. (2021). Introducing the “15-minute city”: Sustainability, resilience and place identity in future post-pandemic cities. Smart Cities, 4(1), 93–111. <https://doi.org/10.3390/smartcities4010006>
5. OECD. (2021). 15-minute city: Reinventing urban life for a better future. OECD Publishing. <https://www.oecd.org/publications>
6. World Bank. (2023). Enhancing urban resilience in Central Asia. The World Bank Group. <https://www.worldbank.org>
7. UNESCO. (2011). Recommendation on the historic urban landscape. United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization. <https://whc.unesco.org/en/activities/638>
8. Dovudov, M., & Xidirov, A. (2020). Zamonaviy shaharsozlikda ijtimoiy jamoat joylarining ahamiyati. TATI Ilmiy axborotnomasi, 3(17), 44–50.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ–302-son qarori. (2022). Tarixiy shaharlarni asrash va ularni rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosatini takomillashtirish to‘g‘risida. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/6065506>

